

TIBBIYOTNING BARHAYOT SIYMOLARI

Boysariyeva Marjona Ravshan qizi

TTA "Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi" fakulteti 3- kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolamizda tibbiyotimizga hissa qo'shgan tibbiyotimiz barhayot siymolari bo'lgan professor, akademiklarimiz ilmiy faoliyatlarini ko'rib chiqamiz.*

Tibbiyotimiz tarixiga nazar soladigan bo'lsak uning tarixi "Avesto" va undan avvalgi davrlarga borib taqaladi. O'zbekiston tibbiyotini unga katta hissa qo'shgan va rivojlantirgan buyuk allomalarimiz Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy kabi ulug' insonlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tibbiyot bir joyda to'xtamaydigan, doimiy ravishda rivojlanib boradigan soha, buyuk allomalarimizning yurtimizda yashab o'tgan shogirdlari, ulardan ruhlangan tibbiyot xodimlari tibbiyotimizni doimiy ravishda yuksaltirdilar va hozirgi kunda ham rivojlantirib bormoqdalar.

Biz buyuk bobolarimiz me'rosini asrab avaylash va uni keyingi avlodga yetkazish vazifamizdir. Aynan bizning ota-bobolarimiz me'rosini asrab avaylab tibbiyotga katta hissa qo'shgan va hozir ham hissa qo'shib kelayotgan shifokorlarimizni Ibn Sino avlodlari deb atasak ham mubolag'a bo'lmaydi. Biz bugun dunyo olimlari tan olingan tibbiyotimizning barhayot siymolari haqida so'z yuritamiz. Shulardan biri Akademik Vosit Vohidovich Vohidov (1917-yil 13-dekabr, Turkiston — 1994-yil 1-iyun, Toshkent) — jarroh, O'zbekistan Fanlar akademiyasi akademik (1979), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1967). ToshMI ni (hozirgi Toshkent tibbiyot akademiyasi) tugatgan (1939). ToshMI umumiy jarrohlik kafedrasini mudiri (1963-1975). 1975-yildan Toshkent jarrohlik ilmiy markazi direktori, ToshMI gospital xirurgiya kafedrasini mudiri. Asosiy ilmiy ishlari ko'krak va qorin bo'shlig'i a'zolari, yurak-tomir kasalliklari diagnostikasi va ularni jarrohlik yo'li bilan davolashni takomillashtirishga bag'ishlangan. Vohidov O'zbekistonda birinchi bo'lib yurak, o'pka, qon tomirlar va qizilo'ngachda operatsiyalar o'tkazgan. Jahon jarrohlar assotsiatsiyasining haqiqiy a'zosi (1971-yildan), „O'zbekiston tibbiyot jurnali“ bosh muharriri (1979—92). Toshkent jarrohlik ilmiy markazi, Toshkent shahri ko'chalaridan biri Vosit Vohidov nomi bilan ataladi. Yana bir tibbiyot fanlari doktori, professori, akademik Shokir Alimovich Alimov (1912.28.9-1976.28.3, Toshkent) — ftiziatr, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademik (1974). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1962), tibbiyot fanlari doktori (1951), professor (1953). SamMI ni tugatgan (1935). O'zbekiston sil kasalliklari ilmiy tadqiqot institutining ordinatori (1935-40), Toshkent shahri 2sil kasalxonasining bosh vrachi (1940- 41), sil kasallari sanatoriysining bosh vrachi (1941 — 43), O'zbekiston sil kasalliklari ilmiy tadqiqot institutining assistenti, so'ngra katta ilmiy xodim (1943-46), 1951-yildan shu institut direktori, ayni vaqtda (1953-yildan) Toshkent Vrachlar malakasini oshirish instituti sil kasalliklari kafedrasining mudiri. Alimov silning epidemiologiyasi, oddini olish va davosi ustida ishlab, bemorlarni mehnat bilan davolashni ilgari surdi. Uning tashabbusi bilan

O'zbekistonda mehnat bilan davolash sanatoriysi, ko'plab sil dispanserlari ochildi. O'zbekiston sil kasalliklari ilmiy tadqiqot instituta, Toshkent ko'chalaridan biri Alimov nomi bilan atalgan. Yana bir fidoyi shifokorlarimizdan O'ktam Oripovich Oripov (1927.3.1, Jizzax shahri — 2001.15.12, Toshkent) — xirurg olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik (1974), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1967), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach (1958), tibbiyot fanlari doktori (1963), professor (1964). SamTIni tugatgan (1948), shu institut fakultet xirurgiyasi kafedrasida klinik ordinator (1948—50), assistent (1950—56), dotsent (1956-61), umumiy xirurgiya kafedrasida mudiri (1961—64), O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari (1964—71). Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori va fakultet xirurgiyasi kafedrasida mudiri (1971—84), 1-Toshkent tibbiyot akademiyasi fakultet va gospital xirurgiyasi kafedrasida mudiri (1984—97), 1997-yildan O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi Jigar va o't yo'llari xirurgiyasi ilmiy markazi direktori. Ilmiy ishlari murakkab radiatsion jarohatlarning kechish xususiyatlarini, organizmga radiatsion nur ta'sir qilganda shikastlangan periferik nervning o'sishini tezlashtirish, xirurgik kasalliklardagi autoimmun jarayonlarning rolini o'rganishga, jarohatlangan o't yo'lining xirurgiyasi, surunkali glomerulonefritni davolash usullari va xirurgiyaning boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Organlarni ko'chirib o'tqazish bo'yicha mintaqada tashkil etilgan markaz asoschisi. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib odamda buyrakni ko'chirib o'tqazgan (1972). Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983). "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Nabi Majidovich Majidov (1928.10.12, Toshkent) — nevropatolog olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik (2000), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1978), tibbiyot fanlari doktori (1965), professor (1966). Toshkent tibbiyot akademiyasini tugatgach (1952), shu institut nerv kasalliklari kafedrasida klinik ordinator (1952—55), assistent (1955—63), dotsent (1963—66), davolash fakulteti dekani (1966-67). N.A.Semashko nomidagi fizioterapiya va kurortologiya ilmiy tadqiqot instituta direktori (1982-86). 1966—98 yillarda 1-Toshkent tibbiyot akademiyasi nevrologiya kafedrasida mudiri. Majidovning ilmiy faoliyati kalla suyagi orqa chu-qurchasining fibrozlovchi surunkali leptomeningiti, xorioependimatitlar etiologiyasi, patogenezi, klinik ko'rinishi, kechishi va davolash muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. U bosh miya qorinchalarining klinik-anatomik xususiyatlarini ko'rsatib berdi. Nerv kasalliklarini davolashda fermentativ preparatlar ishlatishni tavsiya etdi, surunkali leptomeningitlar tasnifini ishlab chiqsi va amaliyotga tadbiq etdi. Tibbiyot institutlari talabalari uchun nevrologiyadan birinchi darslik va qo'llanmalar muallifi. O'zbekiston nevropatologlari ilmiy-tibbiy jamiyati raisi (1968-yildan). Yevrosiyo tibbiyot Fanlar akademiyasi (1994) akademik Bir qancha xalqaro jamiyatlar a'zosi.

Abdulla Zohidovich Zohidov (1910-yil 20-avgust—1977-yil 19-iyul) — sovet olimi va pedagog, gigiyenachi, tibbiyot fanlari doktori, professor, SSSR Tibbiyot fanlari akademiyasi muxbir a'zosi (1971-yilda). O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1963-yilda) va QQASSRda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1965-yilda). 1928-1933-yillarda Toshkent tibbiyot institutida tahsil oladi. 1933-1936-yillarda shu institutning aspiranturasida

o'qiydi. 1936-1939-yillarda Toshkent tibbiyot instituti yuqumli kasalliklar kafedrasida assistent bo'lib ishlagan. 1939-yildan 1946-yilgacha Qizil Armiya safida harbiy shifokor sifatida xizmat qilgan, Ulug' Vatan urushida ishtirok etgan. A.Z.Zohidovning asosiy ilmiy-pedagogik faoliyati iqlim issiqligi sharoitida suv havzalarini sanitariya muhofazasi va suv ta'minoti gigiyenasi sohasidagi masalalar bilan bog'liq edi. 1967-yildan A.Z.Zohidov O'zbekiston Respublikasi Prezidiumi, 1972-yildan Butunittifoq gigiyenachilar ilmiy jamiyati a'zosi edi.

Tibbiyot fanlari professor, Toshkent tibbiyot akademiyasining "Asab kasalliklari va tibbiyot psixologiyasi va psixoterapiya" kafedrasini mudiri –Zarifboy Ibodullayev haqida gap boradi. Zarifboy Ibodullayev Toshkent Davlat Tibbiyot Institutining davolash fakultetini 1988-yili "Davolash ishi" yo'nalishini tugatib akademik Nabi Majidov tavsiyasiga ko'ra "Asab kasalliklari" kafedrasida yosh kadr sifatida qoldiriladi. Uning mashhur qilgan ilmiy ishlaridan biri 2005-yil Z.Ibodullayev 14.00.13 –Asab kasalliklari ixtisosligi bo'yicha "Yarimsharlara funksional asimetriya va serebal insultlarda neyropsixologik sindromlar, ularni korreksiya qilish yo'llari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Bundan oldin esa U 2002-yil ilgari surilgan 2 ta yirik konsepsiyasi, ya'ni ambidekstlarda insult modeli va miyaning psixologik himoya konsepsiyasi xorijlik olimlar, xususan, I.M.Tonkonogiy (AQSH), H.Shonle (Germaniya), E.D.Xomeskayada (Rossiya) katta qiziqish uyg'otadi. 1979-yildan buyon Amerikada istiqomat qilayotgan I.M.Tonkonogiy Z.Ibodullayevni o'zi ishlayotgan ilmiy markazga taklif qiladi va ambidekstriyani o'rganishga doir ilmiy ishlarni birgalikda qilishni taklif qiladi. Biroq ustoz E.D.Xomeskaya "Bu taklifga rozi bo'lmang va ishni Toshkentda davom ettiring" deb tavsiya beradi. Xa albatta bunaqa ishlarni o'zimizda amalga oshirish kerak chunki bizning o'zimizning bajarib bo'lgan va natijaga ozgina qolganda uni AQSHga sotishdan ko'ra o'zimiz, xalqimiz uchun sarf qilgan yaxshi deb bilaman. Fidoyi, tibbiyot sohasining haqiqiy siymosi, professor, tibbiyot fanlar doktori, Toshkent davlat stomatologiya instituti "Yuz-jag' jarrohligi" kafedrasini mudiri Abdubori Astonayevich Jilonovdir. A.Jilonov 1957-yil Farg'ona viloyatida tug'ilgan. 1975-yil Toshkent tibbiyot institutining stomatologiya fakultetiga o'qishga kirgan. 1982-yil Moskva markaziy stomatologiya ilmiy-tekshirish institutiga aspirant sifatida qabul qilingan va shu yerda dastlab tibbiyot fanlar nomzodlik dissertatsiyasini, keyinchalik birinchi Toshkent davlat tibbiyot institutida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning ilmiy ishi asosan yuz-jag' jarrohligi sohasiga bag'ishlangan bo'lib professor V.Bezrukov bilan O'zbekistonda tibbiyot sohasida yangi usul –" Pastki jag' tojsimon o'sig'ining yuqori sinishi va uning jarrohlik davolash usuli"ning asoschisidir. Aynan uning ushbu usuli orqali amalda bir necha o'quv kitoblarida keng qo'llanilib kelinadi. U fidoyi soha vakili bo'lishi bilan bir qatorda, biz yoshlar uchun jonkuyar ustoz hamdir.

Adham Yunusovich Yunusov (1910.1.7 — Toshkent — 1971.16.10) — fiziolog olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik (1952), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1960), biol. fanlari doktori (1949), professor (1950). O'rta Osiyo Paxtachilik va ipakchilik institutini (1932) hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi ni (1943) tugatgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti, Toshkent qishloq xo'jaligi instituti fiziologiya kafedralarida assistent (1932—38), Farmatsevtika instituti fiziologiya kafedrasida dotsent, keyinchalik mudir (1938—49), Toshkent tibbiyot akademiyasi fiziologiya kafedrasida mudiri (1948—52). O'zbekiston maorif vaziri (1952—53). O'zbekiston Fanlar akademiyasi akad.kotibi (1953—56), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya va parazitologiya instituti (hoz. Fiiyulogiya instituti) fiziologiya bo'limi mudiri (1956—71). Ilmiy ishlari odam va hayvon organizmidagi suvtuz almashinuvi regulatsiya sidagi ovqat hazm qilish a'zolarining ahamiyatini tekshirish, kimyoviy termoregulatsiya, yuqori temperaturali sharoitda fiziologik funksiyalar mexanizmining o'zgarishini o'rganish va boshqalar ga oid. Yunusov tadqiqotlari asosida issiq sharoitda ishlaydiganlarning tuz iste'mol qilish me'yori, qoramoldan me'da shirasi olish usuli ishlab chiqilgan. Men hozir yuqorida keltirgan tibbiyot fanlari doktorlari, professorlar, akademiklar orqali butun o'zbek tibbiyotimiz siymolarini yoritib berdim deb o'ylayman.

Maqolamiz so'ngida, tibbiyotimizga hissa qo'shgan mahalliy olimlarimiz haqida qancha yozsam ham shuncha kam. Tibbiyotimiz taraqqiyotida davlatning xalq salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish boshqarib borishi, tibbiy ta'lim va amaliyotning rivojida namoyon bo'lmoqda. Ko'p davlatlarda tibbiyotga e'tibor O'zbekistondagidek davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanmangan. Bizdagi ustuvorlikning yana bir mohiyati shundaki, ichki rezervlardan, mahalliy olimlarimiz erishgan yutuqlardan foydalanibgina qolmay, tibbiyotni taraqqiy ettirish, xalq salomatligini saqlash maqsadida, tibbiyoti yuksak darajada rivojlangan xorijiy davlatlarning yutuq va tajribalaridan, eng zamonaviy tibbiy jihozlaridan foydalanish asosida tibbiyotimiz rivoji yangi sifat darajasiga chiqmoqda. Men ham O'zbekistonda yashashimdan g'ururlanaman, Toshkent tibbiyot akademiyasida o'qiyotganligimdan faxrlanaman. Yuqorida keltirilgan olimlarimiz singari ularning tajribalaridan foydalanib tibbiyotimizga hissa qo'shaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin Tursunov. Tibbiyotimizning barhayot siymolari. -T: "Fan va texnologiya", 2012
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi
3. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxivi
4. Qamariddin Usmonov/O'zbekiston Tarixi kitobi
5. In-academy.uz
6. Wikipedia